



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH  
VAZIRLIGI TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
REKTORINING  
BUYRUG‘I**

2023 yil “19” iyun 01131 - son

**Iqtidorli talabalarni rag‘batlantirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-6155-sonli va 2021-yil 9-sentabrdagi “Respublika oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanayotgan iqtidorli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-6309-sonli Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-apreldagi “Ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 222-sonli qarori ijrosini ta‘minlash hamda Toshkent Tibbiyot Akademiyasi (keyingi o‘rinlarda - TTA)da tahsil olayotgan qobiliyatli yoshlarni rag‘batlantirish tizimini yanada takomillashtirish, ularni faol yaratuvchilik faoliyatiga keng jalb etish, iqtidorli talabalarni qo‘llab-quvvatlash va munosib taqdirlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

**1.** Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor S.I. Do‘stmurodov, Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i O.U.Gaipov, Bosh buxgalter B.I.Alijanova va Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i F.B.Abdumalikovalarga:

– 2023-yilning birinchi yarim yilligi bo‘yicha respublika va xalqaro miqyosdagi o‘tkazilgan olimpiadalar va turli tanlovlarda yakka va jamoaviy ishtirok etib, sovrinli 1-o‘rinni egallagan 1-ilovada nomlari ko‘rsatilgan 94 nafar talabalar Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi 59-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta‘lim muassasalari talabalariga stipendiyalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomiga asosan TTAning Talabalarni rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan har bir erishilgan yutuq uchun 1 000 000 (bir million) so‘mdan bir martalik rag‘batlantirilsin;

– 2023-yilning birinchi yarim yilligi bo‘yicha respublika va xalqaro miqyosdagi o‘tkazilgan olimpiadalar va turli tanlovlarda yakka va jamoaviy ishtirok etib, sovrinli 2-o‘rinni egallagan 2-ilovada nomlari ko‘rsatilgan 94 nafar talabalar Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi 59-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta‘lim muassasalari talabalariga stipendiyalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga

asosan TTAning Talabalarni rivojlantirish jamg'armasi hisobidan har bir erishilgan yutuq uchun 750 000 (yetti yuz ellik ming) so'mdan bir martalik rag'batlantirilsin;

– 2023-yilning birinchi yarim yilligi bo'yicha respublika va xalqaro miqyosdagi o'tkazilgan olimpiadalar va turli tanlovlarda yakka va jamoaviy ishtirok etib, sovrinli 3-o'rinni egallagan 3-ilovada nomlari ko'rsatilgan 83 nafar talabalar Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi 59-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalari talabalariga stipendiyalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan TTAning Talabalarni rivojlantirish jamg'armasi hisobidan har bir erishilgan yutuq uchun 500 000 (besh yuz ming) so'mdan bir martalik rag'batlantirilsin;

2. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova zimmasiga yuklatilsin.

**Rektor**



**A.Shadmanov**

**Buyruq kelishuvi**

**Tayyorladi:**

**F.Abdumalikova**

**Bo'lim boshlig'i**

**Kelishildi:**

**Sh.Boymuradov**

**O'quv ishlari bo'yicha prorektor**

**F.Azizova**

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha  
prorektor**

**S.Dustmuradov**

**Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor**

**O.G'aipov**

**Bo'lim boshlig'i**

**B.Alijonova**

**Bosh buxgalter**

**S.Yusupova**

**Bo'lim boshlig'i**